

Shaxsiy ma'lumotlar subyektining shaxsiy ma'lumotlariga ishlov berishga  
ROZILIGI

Foydalanuvchi (shaxsiy ma'lumotlar subyekti) <https://www.paygine.uz/> saytida (keyingi o'rinlarda - Sayt) joylashtirilgan qayta aloqa shakllarida o'zining ma'lumotlarini to'ldirish yo'li bilan o'z shaxsiy ma'lumotlarini taqdim etish haqida qaror qabul qiladi, aynan esa:

- familiya, ism, otasining ismi, elektron pochta manzili, telefon.

Foydalanuvchi Saytga joylashtirilgan qayta aloqa shakllarida o'z ma'lumotlarini to'ldirib, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Mirobod tumani, Afrosiyob ko'ch., 1 manzili bo'yicha joylashgan ro'yxat raqami 1130365, STIR 309501041 bo'lgan "Paygine Tech" Mas'uliyati cheklangan jamiyatga ("Paygine Tech" MCHJ) shaxsiy ma'lumotlariga ishlov berishga mazkur Rozilikni taqdim etadi.

Rozilik avtomatlashtirish vositalarini qo'llash yoki bunday vositalarni qo'llamasdan ishlov berishga (jumladan, yig'ish (shu jumladan, uchinchi shaxslardan), tizimlashtirish, to'ldirish, saqlash, aniqlashtirish (yangilash, o'zgartirish), qo'llash, shaxssizlantirish, bloklash, yo'q qilish) taqdim etiladi.

Shaxsiy ma'lumotlarni to'plash va ularga ishlov berish maqsadi - Saytda joylashtirilgan qayta aloqa shakli bo'yicha foydalanuvchining murojaatlariga ishlov berish, qayta aloqa shakli mavzusi bo'yicha foydalanuvchi bilan aloqani o'rnatish, qayta aloqa shakllari bo'yicha statistikani to'plash va uni tahlil qilish, foydalanuvchilarni texnik qo'llab-quvvatlash.

"Paygine Tech" MCHJdan olingan shaxsiy ma'lumotlar Rossiya Federatsiyasi hududida saqlanadi va ishlov beriladi.

Mazkur Rozilik Rossiya Federatsiyasi qonunchiligi bilan belgilab beriluvchi ko'rsatib o'tilgan ma'lumotlarni saqlovchi muvofiq ma'lumotlar yoki hujjatlarni saqlash muddati yakunlanguniga qadar bo'lgan davrga beriladi. Rozilik [helpline@paygine.uz](mailto:helpline@paygine.uz) elektron pochta manzili bo'yicha yo'naltirilgan Foydalanuvchining yozma arizasi asosida istalgan vaqtda chaqirib olinishi mumkin.